

**QUYI AMUDARYO ILK O'RTA ASR JAMIYATI
TARAQQIYOTIDA QISHLOQ JAMOALARIDA
KECHGAN TARIXIY JARAYONLAR SAHIFASI**

*Karimov Sarvarbek Otabayevich, Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

**HISTORICAL PROCESSES IN VILLAGE
COMMUNITIES DURING THE DEVELOPMENT
OF THE LOWER AMUDARYA EARLY
MEDIEVAL SOCIETY**

*Karimov Sarvarbek Otabayevich, independent researcher of
Urganch State University*

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В СЕЛЬСКИХ
ОБЩИНАХ В ПЕРИОД РАЗВИТИЯ
НИЖНЕАМУДАРЬИНСКОГО
РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОГО ОБЩЕСТВА**

*Каримов Сарварбек Отабаевич, независимый
исследователь Ургенчского государственного
университета*



<https://orcid.org/0009-0000-5515-120X>

e-mail:

sarvarkarimov788@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida etnik jarayonlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Beruniy, S.P.Tolstov, M.A.Orlov, E.E.Nerazik, Y.A.Rapoport, N.N.Vakurskaya, V.N.Yagodin, T.K.Xo'jayev, Q.Sobirov, A.Qurbonov, Xorazm, Amudaryo, Shohsanam, Mizdaxqan, Urganch, Qirqqiztepa, Jigarband, Kichik Chingiztepa, Marjonbobo, Toshqal'a, Zarliq ishonbobo, Norinjon, Charmanyop, Donjon, S.Baratov.

Abstract: The article analyzes the ethnic processes in the regions of the right and left banks of the Amudarya.

Key words: Beruniy, S.P. Tolstov, M.A. Orlov, E.E Nerazik, Rapoport Y.A Vakurskaya N.N, Yagodin V.N, Khojayev, T.K, Sobirov Q, Kurbanov A, Khorazm, Amudarya, Shokhsanam, Mizdakhkan, Urgench, Qirqqiztepa, Jigarband, Kichik Chingiztepa, Marjonbobo, Tashkala, Zarlikishonbobo, Norinjon, Charmanyop, Donjon, Baratov S.

Аннотация: В статье анализируются этнические процессы на территории правобережья и левобережья низовья Амударьи.

Ключевые слова: Беруний, С.П. Толстов, М.А. Орлов, Е.Э. Неразик, Рапопорт Ю.А, Вактурская Н.Н, Ягодин В.Н, Ходжаев Т.К, Сабиров К, Курбанов А, Хорезм, Амударья, Шохсанам, Миздахкан, Ургенч, Кирккизтепа, Джигарбанд, Кичик Чингизтепа, Марджонбобо, Ташкала, Зарлик ишонбобо, Норинджон, Чарманёп, Донжон, Баратов С.

KIRISH. Milodiy V – IX asrlar Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida ilk o'rta asr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik-madaniy jarayonlarda yuz bergan o'zgarishlar bilan antik davr

jamiyatida tubdan farqlanish xususiyatlarini o'rganish maqolaning asosiy mazmun va mohiyatini tashkil qiladi.

Ilk oʻrta asr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarida iqtisodiy tanazzulga boʻlgan omillar qarab chiqiladi. Shu bilan birga baʼzi aholi turar joylarida madaniy xoʻjalik hayot va etnik jarayonlar kechganligi tarixini yoritish nazarga olingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. S.P.Tolstov asarlarida ilk oʻrta asrda kechgan jarayonlarga taʼsir qilgan qishloq maqomiga ega boʻlgan yodgorliklarning rejayviy tuzilishi, saqlanib qolgan mudofaa devorlari tasviri berilgan[1.1948.c136-138; 2.1948.c196-202; 3.1962.c 235-257]. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari M.A.Orlov, E.E.Nerazik, Y.A.Rapoport, N.N.Vakturskayalar nashrlarida Baraktom, Shohsanam, Urganch yodgorliklarining rejayviy tuzilishi mudofaa inshootlarining tasviri berilgan va qisman arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar ilk oʻrt asr jamiyati rivojlanishini yoritishga imkon beradi[4.1963c135-142;8.1958.c395-396; 7.1953.c-495] Xorazm vohasi aholisining ilk oʻrta asrlarda kechgan iqtisodiy-ijtimoiy va etnik-madaniy munosabatlarning rivojlanish tarixiga oid maʼlumotlar E.E.Nerazik asarlarida qayd qilingan[8.1966-c12-38;11.1976.c58-66].

Tadqiqotchilar tomonidan chop etilgan monografiyada Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar rivojlanishiga imkon bergan Afrigʻiylar va Kerder davlati tarixiy oʻrni hamda Afrigʻ va Kerder madaniyatining tarixiga oid fikr-mulohazalar qayd etilgan[10.1966.c.51-155].

M.Sh.Kdirniyozov Afrigʻiylar davriga oid Burgutqalʼa, Kat (oʻng sohil), Urganch, Yakkaparon-2, Sirdaryo oʻrta qismida Balanda yodgorliklari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni qayd etgan. Amudaryo soʻl sohili hududida joylashgan Mizdaxqon yodgorligida qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan uning topografik joylashishi, ichki qismini bir necha joyida qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar ilk oʻrta asrda kechgan tarixiy jarayonlarga oid boʻlganligi nashrlarda oʻz aksini topgan[12.1970.c7-24]. Q.Sobirov, O.Qurbonov tadqiqotlarida Amudaryo oʻng va soʻl sohili hududlarida ilk oʻrt asr qishloqlari toʻgʻrisidagi axborotlar geografiyasi keng[13 2009 b.73-80].

Ushbu mavzuni yoritishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- *Ilmiylik;*
- *Tarixiy tahlil;*
- *Xronologik izchillik;*
- *Umumlashtirish;*
- *Qiyoslash, munozara;*
- *Mantiqiy xulosa;*
- *Arxeologiya, antropologiya, geografiya, etnografiya yutuqlaridan foydalanish.*

MUHOKAMA. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari XX asrning 20-yillari oxirida A.Y.Yakubovskiy boshchiligida Amudaryoning soʻl sohilida joylashgan Koʻhna Urganch yodgorligida qazishma ishlari olib borib, ilk oʻrta asr jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlarini yoritadigan manbalar olingan[1.1930.c. 550-551]. S.A.Yershov Toshhovuz viloyati Goʻroʻgʻli tumani hududida oʻtroq aholi tomonidan qoldirilgan Zamaxshar (Zumuxshur) yodgorligida qazish ishlari olib bordi. Quyi Amudaryo ilk oʻrta asr jamiyati taraqqiyotida qishloq jamoalarida kechgan tarixiy jarayonlarni quyidagi yodgorliklar va ularda olib borilgan izlanishlar misolida koʻrib oʻtamiz.

1. **Chingiztepa-1.** Toshsaqa hududida joylashgan, rejasi aylana shaklida, uning hajmi 120 m, balandligi 20 m mayda toshdan tiklangan devor izlari va jamoat binolari koʻzga tashlanmaydi.

2. **Kichik Chingiztepa-I** Chingiztepa I yaqinida joylashib, tarxi aylana shaklda, aylanasi 70 m, balandligi 10 m boʻlib, mayda tosh aralashgan sariq tuproqdan tiklangan. Mil. avv. IV asrga oidligi aniqlangan.

3. **Chingiztepa III** Chingiztepa II yodgorligidan 200 m sharqiy tomonida aylana shaklida, uning hajmi 30 m, balandligi 3 m. Ikki qatorli devor bilan oʻrab olinib, aylana shakldagi burjlarga ega.

4. **Qoratosh-1.** Xumbuztepadan 4 km janubdagi Tuyatortar sugʻorish inshooti, aylana shaklda qurilgan 80x82 m. Yodgorlikning saqlanib qolgan balandligi 1,5m. Mudofaa inshootlari qoldigʻi saqlanib qolgan.

5. **Qoratosh-2.** Hazoraspdan 20 km sharqiy tomonda joylashib, toʻgʻri burchak xolda 50x70m, balandligi 1,5 m.

6. **Yakka-chigʻir II.** Hazorasp shaxridan 29 km janubi-gʻarbiy tomonda joylashgan boʻlib, aylana shaklida, hajmi 17x80 m, balandligi 1,5 m.

7. **Marjonbobo** Pitnakdan 3 km janubda joylashgan, maʼmuriy-topografik tuzilishi jihatidan ikki qismdan iborat boʻlib, birinchi qismi hajmi

80x60 m. Ikkinchisi esa uchburchak shaklda 120x180 m.

8. **Toshqal'a-2.** Janubiy Xorazm hududida Tuproqqal'a massivi "Gurlan" shirkat xo'jaligi hududining Amudaryo sohilida joylashib, yer sathidan saqlanib qolishi 1,5-2 m. Rejalashtirilishi kvadrat, umumiy maydoni 50x50 m. Yodgorlik qismida ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, devordan yon tomonga o'sib chiqqan burj izlari ko'zga tashlanadi. Arxeologik tadqiqotlar Toshqal'a-2 yodgorligida olib borilishi natijasida ikki qatorli mudofaa devori o'rganilib, ular o'rtasidan o'tgan yo'lakning kengligi 2 m. Tashqi devor qalinligi 170 sm, ichki devor esa 150 sm ga teng. Devor burchagida va devorda yarim aylana burjlar o'rganildi, devordan yon tomonga o'sib chiqishi 3,5 m, devor va burjlar, o'z navbatida, nayza o'qi uchli shinaklar bilan kuchaytirilib, ularning kengligi 18-20 sm, balandligi 40 sm. Burjlar o'rtasidagi masofa 5m[6.2004.c 56-58].

9. **Shohsanam** Toshhovuz viloyati Ko'hna Urganch tumani hududidagi Charmanyop kanalining oxirgi qismida joylashgan. Qal'a rejalashtirilishi to'g'ri bo'lmagan ko'pburchak shaklida, ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, umumiy uzunligi 970 m. Yodgorlik shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy qismlardan iborat. Shimoli-sharqiy qismi hajmi 50x55 m bo'lib, shimoliy devorga birlashgan. Tashqi devor balandligi 3,2 m, qalinligi 3,3 m. Devor, avval paxsadan, keyin kvadrat xom g'ishtdan qurilgan (40x40x10). Tashqi devor va burjlarda nayza o'qi uchli shinaklar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 2,4 m, balandligi 1,05 m, kengligi 0,5-0,20 m. Shaharning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichi, ichki tuzilishi, mudofaa tizimi tarixini arxeologik jihatdan o'rganilishiga e'tibor berilmagan. Shahar ilk o'rta asrlarda iqtisodiy, madaniy va diniy markaz bo'lib, devor va burjlarida ta'mirlash ishlari olib borilgan. Tashqi devor burjlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi mudofaa maydoni 35-40 m, burj kengligi 8 m, devordan yon tomonga o'sib chiqishi 0,9- 1,75 m. Shaharda xo'jalik-madaniy hayot mil. avv. IV asrdan — milodiy IX asrlarda davom etgan[8.1952.c 152-158].

10. **Yakkaparson** Burgutqal'a dehqonchilik vohasida joylashib, uning tarxi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, hajmi 74x34 m. Ilk o'rta asrlarda to'rt tomoni mudofaa devori bilan o'rab olingan aylana shakldagi burjlar bilan kuchaytirilgan bo'lib,

ularning oraliq maydoni 15 m. Yodgorlik atrofi 20 m kenglikdagi xandak bilan o'rab olingan. Qo'rg'on darvozasi ikki tomoni aylana burj bilan mustahkamlangan. Mudofaa devor va burjning balandligi 5-8 m bo'lib, poydevorga ega. Qo'rg'on markazida 5-6 xonali uylar o'rganildi. Manzilda ikki qurilish davri bo'lib, birinchi qurilish davrida devor paxsadan tiklangan, unda to'g'ri burchakli shinaklar mavjud. Ikkinchi qurilish davrida yo'lakli devor paxsa devor bilan to'ldirilgan, natijada yana ochiq yo'lak paydo bo'lgan. Markazdagi mahobatli qasr Donjon devori paxsa bilan qurilib, uning yuqori qismi 8 xonali uydan iborat bo'lgan[4.1963.C-145].

11. **Teshikqal'a** Burgutqal'adan 2 km janubda joylashgan bo'lib, uning hajmi 100x100m. To'rt tomoni paxsa devor bilan o'rab olingan, balandligi 12-14 m. Devor bo'ylab burj mavjud emas, biroq, devor burchagida aylana shakldagi burj joylashgan, u o'z navbatida, shinaklarga ega. Yodgorlikning janubiy qismida to'rtburchak shaklida qurilgan katta hajmdagi Donjon o'rganildi. Uning pastki qismi balandligi 6 m bo'lgan paxsadan qurilgan, keyin esa xomg'ishtli devor qurilishi amalga oshirilgan. Devorning tashqi tomoni aylana shakldagi paxsa bilan bezatilgan bo'lib, u "gofri" ko'rinishini olgan.

12. **Sho'raxon** To'rtko'l tumani hududida joylashgan. Tarixiy manbalarda aholi yashaydigan manzil sifatida milodiy X-XI asrlardan ma'lum bo'lib, mudofaa devor bilan o'rab olingan. Qal'a haqida X.Vamberi shunday yozgan: "Sho'raxonning serunum yerlari cho'l bilan chegaralangan, odamlar yashaydigan uylar juda ham oz, unda 320 gacha savdo rastasi bo'lib, atrofidagi o'troq va ko'chmanchi aholi uchun haftada ikki marta bozor bo'ladi". Yodgorlikda arxeologik qazish ishlari olib borilmagan.

13. **Norinjon** Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Yodgorlik to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, mudofaa devor bilan o'rab olingan, to'g'ri to'rtburchakli burjlarga ega. Yodgorlik yonida kichik shaharcha vujudga kelgan. Sho'raxon va Norinjon to'g'risida Y.G'ulomov fikr yuritib, uni Garamxashnaga o'xshatgan. X asrda bu shahar katta va aholisi zich bo'lgan. Yodgorlik ichki va tashqi paxsa devor bilan o'rab olingan.

14. **Qavatqal'a** Ellikqal'a tumani markazi Bo'ston shahrining g'arbiy tomonida joylashgan. U to'g'ri to'rtburchak shaklda rejalashtirilib, qadimda devor bilan o'rab olingan, u o'z navbatida, 12 burjga

ega. Devor va burjlar balandligi 8-10 m, qalinligi 5-7 m, yuqori qismi esa 2-3 m. Mudofaa devori ilk o'rta asrlarda paxsadan tiklangan. Uning tashqi qismi "gofri" bilan bezatilgan. Yodgorlik mo'g'ullar istilosidan keyin xarobaga aylangan.

16. **Kichik Qal'ajik** Bog'ot tumanidagi "Toshkent" fermerlar xo'jaligi hududida joylashgan. Rejalashtirilishi to'g'ri burchak, maydoni 68x50 m. Qal'a mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, balandligi 0,5, kengligi 2,2-2,5 m. Janubiy-sharqiy tomonida darvoza joylashgan. Darvoza oldida murakkab inshoot qurilmagan, ark yo'q. Yodgorlikda keng ko'lamlar arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan.

17. **Qushchaqirganqal'a** Bog'otdan 6 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Rejalashtirilishi aylana shaklda, hajmi 30 m, devor bilan o'rab olingan, balandligi 1-2,5 m, kengligi pastki qismida 3-4 m. Arablar istilosidan keyin, yodgorlikda xo'jalik iqtisodiy inqirozga uchragan. Yodgorlik arxeologik jihatdan o'rganilmagan.

18. **Zarqliq ishonbobo** Qo'shko'pir tumani hududida joylashgan. Rejalashtirilishi to'g'ri to'rtburchak shaklda, hajmi 207x239 m. Devor bilan o'rab olingan bo'lib, balandligi 1,5-2 m. O'z navbatida, yarim aylana shakldagi burjlarga ega. Ular o'rtasidagi masofa 24-30 m. Yodgorlikning janubiy-g'arbiy devori o'rtasida darvoza joylashgan. Yodgorlik xandak bilan o'rab olingan, uning kengligi 1,4-2,1m. Arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan[13.b.67-70].

17. Sulton Uvays tog' tizimida **Ayozqal'a - II** yer sathidan 30 m balandlikda joylashgan, u ikki qismdan iborat. Uning asosiy qismining hajmi 36x65 m. Yodgorlikning shimoliy-sharqiy qismi yarim aylana shaklda. Shimoliy qismi to'g'ri yo'nalishda qurilgan. Aylana xolldagi qismida devor balandligi 7-8 m, pastki qismi devorining qalinligi 4,4-4,8 m. Devorning yuqori qismi to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklangan. Tashqi devor bo'ylab yo'lak mavjud bo'lib, uning kengligi 2,2-2,4 m. Mudofaa devori ikki qavatli to'g'ri to'rt burchak shinaklar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi masofa 1,7-2 m. Ayozqal'a-2 dan olingan arxeologik ashyolarga asosan, u milodiy VII-VIII asrlarga oid degan xulosaga kelingan.

19. **Jigarband** Amudaryoning so'l sohili hududida, Darg'onota shahridan 40 km shimoliy-g'arbda joylashgan, uning tarhi to'rtburchak shaklda

qurilgan (80-90m). Yodgorlik devor bilan o'rab olinib, alohida arkka ega bo'lgan. Yodgorlik to'g'risida dastlabki ma'lumotlar X asrga mansub tarixiy adabiyotlarda uchraydi. Shahar xalqaro savdo yo'lida joylashganligi sababli madaniy hayot uzluksiz davom etgan. Shahar mudofaa devori, burj va ark devorlari ta'mirlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, VI-IX asrlarda devor va burj paxsa bloklar bilan ta'mirlangan[17.1975.c.522-523].

20. **Qirqqiztepa.** Yodgorlik Hazoraspdan 8 km shimoli-g'arbda "Qora yantoq" qishlog'i hududida joylashgan. Rejalashtirilishi to'g'ri to'rtburchak shaklda, maydoni 20x30 m, balandligi 2,5 m. Yodgorlikni xandak o'rab olgan, kengligi 5-6 m. Hozirgi vaqtda tepada qabriston joylashgan. Tepaning yuqori qismida xum qoldiqlari topilgan. Yodgorlikdan 20-30 m janubi-sharqiy tomonda hajmi katta bo'lmagan noma'lum tepalik joylashgan, uning saqlanib qolgan balandligi 1,5m.

NATIJA. Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida antik davr hududlarida ilk o'rt asr madaniy qatlamlarining aks etishi, aholi son miqdori oshganligi sabab yangi turar joylar qurilishi munosabati bilan vujudga kelgan mikrovohalarning vujudga kelish, shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shu bilan birga tadqiqotchilr asarlarida ilk o'rta asr jamiyat taraqqiyotiga qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar yangicha yondashuvlar asosida nazariy-qiyosiy tahlil qilingan.

Quyi Amudaryo havzasi hududida tarixiy madaniy markazlari, ular doirasida rivojlangan mikrovohalarda joylashgan o'troq aholining ilk o'rta asr jamiyatining madaniy-xo'jalik markazlari, ular doirasida mikrovohalar rivojlanishiga imkon bergan siyosiy birlashmalarining tarixiy o'rni, iqtisodiy-madaniy jihatdan tanazzulga yuz tutishi sabablari va rivojlanishiga imkon bergan omillar natijalari yoritildi.

XULOSA. Ilk o'rta asr jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlari mazmun-mohiyatini ikki tarixiy davrga ajratgan holda, ya'ni milodiy V-VI asr birinchi yarmida kechgan tanazzul hamda suv ta'minoti barqaror bo'lganligi bois ba'zi turar joylar iqtisodiy-madaniy markaz bo'lganligi masalalarida xulosalar qilinadi.

Quyidagicha taklif qilingan o'ng va so'l sohil hududida saqlanib qolgan madaniy meros obyektlarini asrash va kelajak avlodga yetkazish, shu

bilan birga umumta'lim maktab o'quvchilariga ekskursiyalar tashkil etish O'zbekiston tarixining ilk o'rta asr tarixiga oid ma'ruzalar tashkil etish, referat, kurs ishlari bajarish ilgari surilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning fundamental asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Xorazmda yuz bergan etnik jarayonlarga oid ilk ma'lumotlarni qayd etganligi diqqatga sazovor. Masalan: "Ular Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, undan keyin u Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi, undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav naslining Xorazmda podshohlik qilishidan tarix oldilar"[1968.b-71]. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlardan ma'lumki mil. avv. VI asr so'nggi choragidan shimoliy Baqtriyadan ko'chib kelgan ziroatkor aholi sun'iy sug'orma dehqonchilik madaniyatini, kundalik turmush tarzida binokorlik bilimi asosida turar joylarni barpo qilish jarayoni boshlangan. Qayd qilingan tarixiy davrgacha ajdodlarimiz yog'och ashyolar asosida yarimyerto'la shaklda turar joylarda istiqomat qilib murakkab tarixiy jarayonlarni bosib o'tgan. E.E.Nerazikning Amudaryo o'ng sohili hududidagi ilk o'rta asrlar aholi turar joylariga bag'ishlangan asarida Burgutqal'a yodgorligida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar milodiy VII-VIII asrlarga oid bo'lgan [10.1966. c 138-142].

Tadqiqotchi asarida Xorazmning afriq'iy davri qishloqlari asarida Burgutqal'a yodgorligining topografiyasida yuz bergan tub o'zgarishlar tasviri berilgan. Yodgorlikning janubiy-g'arbiy tomonidan o'rab olgan mudofaa devorlari saqlanib qolgan. Uning hajmi bo'yicha 5 ga bo'lganligi qayd etiladi.

Shimoliy-sharqiy qsimidagi inshoot kvadrat shaklda bo'lib uning burchagida yarim aylana burjlar joylashgan. Nazarimizcha yodgorlikning arki bo'lsa kerak (100x100). Tadqiqotchi yodgorlikning umumiy hajmi 5ga ekanligini qayd etgan, lekin milodiy V asrda yodgorlikning ichki hajmi 1ga ga qisqargan, demak bu makonni aholi tashlab ketgan, arkida hayot qisman davom etishi holatlariga tavsif bermagan. A.Qurbonovning Quyi Amudaryo hududida antik davrda qad ko'targan aholi turar joylarida madaniy hayot inqirozi (Burliqal'a, Ayozaqal'a-1,3, Yonboshqal'al'a, Aqshaxanqal'a, Anqaqal'a, Toshxirmon) aholi markazlarida hayot so'nganligi, ayni shu tarixiy davrda bir qator

yodgorliklarda xo'jalik madaniy hayoti davom etganligi omillarini to'g'ri qayd etganligi to'g'risidagi fikrlarga qo'shilish mumkin (Katta Guldursun, Katqal'a (o'ngsohil), Teshikqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a, Dumanqal'a).

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

- Miloddan avvalgi V-III asrlarda quyi Amudaryo hududida o'troq aholi tomonidan Kaltaminor, Tozabog'yop, Amirobod magistral kanallari ularning bosh, o'rta sohili bo'ylab bino qilingan qishloq tipidagi turar joylar iqtisodiy va madaniy jihatdan barham topgan. (Djinggilja, Raisqal'al 3, Yonboshqal'a, Anqaqal'a);

- O'ng sohildagi ba'zi yodgorliklarda hayot davom etgan (Uyqal'a, Burgutqal'a arkida, Dumanqal'a, Ayozaqal'a, Qizilqal'a, Olmaotishgan-2, Sandiqlitepa, Qal'atepa);

- Bundan tashqari yana bir qator madaniy xo'jalik markazlarida hayot barham topgan (Aqshaxan madaniy xo'jalik markazi mikrovohasida Toshxirmontepa, Xilkanik madaniy xo'jalik markazi bosh shahri Tuproqqal'a, Yangiariq madaniy xo'jalik markazi(Tuproqqal'a);

- Ilk o'rta asrda madaniy xo'jalik hayoti davom etgan qal'alar Hazorasp madaniy xo'jalik markazi mikrovohasi Sandiqlitepa, Qalajiq, Turoqqal'a madaniy xo'jalik markazi mikrovohasi Qizilqal'ada ham madaniy hayot davom etgan.

Shunday qilib, o'ng va so'l sohildagi madaniy xo'jalik markazlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi va ular doirasida mikrovohalarning mudofaa chegara qal'alari vazifasini bajarishi, Amudaryo suv ta'minotining barqaror bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: Наука, 1948.
2. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.: Наука, 1948.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: Наука, 1962.
4. Неразик Е.Е. Раскопки Якке-Парсана//МХЭ. 1963. Вып.7. 1963. С. 5;
5. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча. Л., 1930.

6. Баратов С., Матрасулов Ш. Археологические работы в южном Хорезме.// Археологические исследования в Узбекистане. 2003 г. Самарканд, 2004.
7. Неразик Е. Е. Археологическое обследование городища Куны-Уаз в 1952г. М: Наука, 1953.
8. Рапопорт Ю.А. Раскопки городища Шах-Санем в 1952г.//ТХАЭЭ. Т.2. М.: Наука, 1958.
9. Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 Г.//ТРХАЭЭ Т. 2. М.: Наука, 1958.
10. Незарик Е.Е. Сельское поселение афригидского Хорезма. М.: Наука, 1966.
11. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.). М.: Наука, 1976.
12. Ягодин В.Н., Ходжаев Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. Ташкент: Фан, 1970
13. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. Т.: 2009.
14. Собиров К. Ўрта Осиё муҳофаа иншоотлари тарихидан (энг қадимги даврдан II минг йиллик охири) –Тошкент, 2003.
15. Qurbanov A. Quyi Amudaryo hududida lk oʻrta asr jamiyatining iqtisodiy rivojlanishiga doir baʼzi chizgilar. //Tamaddun nuri. Beruniy, 2023. № 4.
16. Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. 1-т. Тошкент: Фан, 1968.
17. Вишневская О.А. Раскопки городища Джигербанд. АО. -1974г. М.: Наука, 1975.

